Qabul qilindi: 19-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 21-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 23-noyabr 2026-yil

SINF BOSHQARUVI JARAYONIDA O‘QUVCHILAR INTIZOMINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI PEDAGOGIK USULLARI

Shodmonova Javhar A’zamjon qizi
Abdusalimova Bahora Nozimjon qizi

Annotatsiya. Maqolada sinf boshqaruvining pedagogik mohiyati, o‘quvchilar intizomini shakllantirishda qo‘llaniladigan profilaktik, jarayonli va korreksion usullar tahlil qilingan. Intizom taqiqlar orqali emas, balki aniq qoidalar, o‘zaro hurmat va yaxshi rejalashtirilgan dars orqali shakllanishi asoslab berilgan. Maqola oxirida boshlang‘ich va o‘rta sinf o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются сущность управления классом и профилактические, процессуальные и корректирующие методы формирования дисциплины учащихся. Обосновано, что дисциплина формируется не запретами, а через чёткие правила, взаимное уважение и продуманное планирование урока. Даны практические рекомендации для учителей начальных и средних классов.

Abstract. The article examines the essence of classroom management and the preventive, process-oriented and corrective methods of building student discipline. It argues that discipline grows from clear rules, mutual respect and well-planned lessons rather than from prohibitions. Practical recommendations for primary and secondary school teachers are provided.

Kalit so‘zlar: sinf boshqaruvi, intizom, o‘quvchi, o‘qituvchi, qoidalar, muloqot, dars rejalashtirish.

Kirish

Har bir o‘qituvchi hayotida shunday dars bo‘ladi: reja puxta tuzilgan, material tayyor, ammo sinf shovqinli, o‘quvchilar bir-birini chalg‘itadi va dars o‘rtasida mavzuga qaytish uchun yarim soat ketadi. Bunday vaziyatda ko‘pchilik o‘zidan emas, sinfdan norozi bo‘ladi.

Holbuki, tajriba shuni ko‘rsatadiki, sinfdagi tartib ko‘p hollarda o‘quvchilarning “yomonligi”ga emas, balki dars qanday boshqarilayotganiga bog‘liq.

Sinf boshqaruvi masalasi pedagogika fanida yangi emas. Biroq bugungi maktabda u yangi mazmun kasb etmoqda. O‘quvchilar axborotga erkin kirish imkoniyatiga ega, ularning diqqati tez chalg‘iydi, sinfda esa turli qobiliyat va ehtiyojdagi bolalar birga o‘qiydi. Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasida ham ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti sifatida o‘qituvchining kasbiy mahorati va o‘quv muhitining xavfsizligi ko‘rsatilgan (PF-5712, 2019).

Mazkur maqolaning maqsadi — o‘quvchilar intizomini shakllantirishning samarali pedagogik usullarini tahlil qilish va ularni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir. Maqolada nazariy manbalarni tahlil qilish, taqqoslash va o‘qituvchilar amaliyotini umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

1. Sinf boshqaruvining mohiyati

Ko‘pincha sinf boshqaruvi “o‘quvchilarni jim o‘tirgizish” deb tushuniladi. Bu yaroqsiz talqin. Jim sinf har doim ham o‘rganayotgan sinf degani emas: bolalar qo‘rqib jim bo‘lishi yoki shunchaki zerikib, o‘z o‘yiga cho‘mgan bo‘lishi mumkin. Zamonaviy yondashuvda sinf boshqaruvi o‘qituvchining o‘quv jarayoni uchun qulay muhit yaratishga, o‘quvchilarning faolligini qo‘llab-quvvatlashga va xulq-atvorga oid qoidalarni birgalikda ishlab chiqishga qaratilgan harakatlari majmui sifatida qaraladi (Evertson, Weinstein, 2006).

Amerikalik tadqiqotchi J. Kounin 1970-yilda sinflarni kuzatib, qiziqarli xulosaga keldi: intizomli sinflarning o‘qituvchilari qoidabuzarlikka javob berishda emas, uning oldini olishda kuchli edi (Kounin, 1970). Ular sinfda sodir bo‘layotgan hamma narsani ko‘rib turar, bir faoliyatdan ikkinchisiga silliq o‘tar va bir vaqtning o‘zida bir nechta ishni nazorat qilar edi. Kounin bu sifatni “hamma narsadan xabardorlik” deb atagan. Biz buni oddiyroq ayta olamiz: yaxshi o‘qituvchi sinfga orqasini o‘girib doskaga yozayotganda ham orqasida nima bo‘layotganini his etadi.

Intizomga oid ishlar uchta yo‘nalishda olib borilishi maqsadga muvofiq. Birinchisi — profilaktik, ya’ni muammo paydo bo‘lishidan oldingi ishlar. Ikkinchisi — jarayonli, ya’ni dars vaqtidagi nazorat va yo‘naltirish. Uchinchisi — korreksion, ya’ni qoidabuzarlik

allaqachon sodir bo‘lgan holatdagi harakatlar. Ushbu uch yo‘nalish 1-rasmda ko‘rsatilgan.



1-rasm. Sinf boshqaruvining uch yo‘nalishi

Tadqiqotlar profilaktik yo‘nalish eng samarali ekanini ko‘rsatadi. Ammo amaliyotda ko‘p o‘qituvchi kuchining katta qismini aynan oxirgi, korreksion bosqichga sarflaydi: jahl qiladi, tanbeh beradi, ota-onani chaqiradi. Bu eng ko‘p vaqt va asabni oladigan, lekin eng kam natija beradigan yo‘l.

2. Profilaktik usullar: muammo boshlanmasdan oldin

2.1. Qoidalarni birgalikda ishlab chiqish

Sinfga tayyor qoidalar ro‘yxatini osib qo‘yish oson, ammo bunday qoidalar ko‘pincha devor bezagiga aylanadi. O‘quvchilar o‘zlari ishtirok etgan qoidani ancha ehtiyotkorlik bilan bajaradi. Shuning uchun o‘quv yilining birinchi haftasida sinf bilan ochiq suhbat o‘tkazish foydali: “Biz bu sinfda qanday ishlasak, hammamiz uchun qulay bo‘ladi?” Bolalar ko‘pincha o‘qituvchi o‘ylagandan ham qattiqroq talablar qo‘yadi. Masalan, “gaplashayotgan odamni gapini bo‘lmaymiz” yoki “boshqaning narsasiga ruxsatsiz tegmaymiz”.

Qoidalar soni besh-oltitadan oshmagani yaxshi, chunki ko‘p qoidani eslab qolish qiyin. Ular ijobiy shaklda yozilgani ma’qul: “qichqirmaymiz” o‘rniga “past ovozda gaplashamiz”. Tushuntirish ham shart: har bir qoida nima uchun kerakligini bolalar bilishi lozim.

2.2. Tartib-qoidalar va odatlar

Qoida — bu “nima mumkin emas”, tartib esa “qanday qilamiz” degan savolga javob. Daftarlarni qanday tarqatish, savol berishdan oldin nima qilish, guruhga qanday bo‘linish

— bularning barchasini o‘quvchilarga bir marta puxta o‘rgatish keyinchalik minglab daqiqani tejaydi. Birinchi haftada bu mashg‘ulotga ortiqcha vaqt ketadi, lekin o‘quv yili oxirida bu sarf bir necha barobar qaytadi.

2.3. Yaxshi rejalashtirilgan dars

Intizom muammosi ko‘pincha dars qismlari orasidagi “bo‘sh joy”larda paydo bo‘ladi: o‘qituvchi tarqatma material qidirayotgan, texnika ishlamayotgan yoki vazifa tez bajarilib, bolalar kutib qolgan daqiqalarda. Shuning uchun dars rejasida har bir qismning vaqti, o‘tish usuli va “ortiqcha vaqt” uchun qo‘shimcha topshiriq oldindan o‘ylab qo‘yiladi. Bu bevosita o‘quv dasturini sinfda tatbiq etish bilan bog‘liq: dastur maqsadi qanchalik aniq bo‘lsa, dars shunchalik tartibli bo‘ladi.

2.4. O‘qituvchi va o‘quvchi munosabati

Mashhur tadqiqotchi R. Marzano va uning hamkasblari o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi yaxshi munosabat sinf boshqaruvining asosiy omillaridan biri ekanini ta’kidlaydi (Marzano, Marzano, Pickering, 2003). Bu “bolalarga yoqish” degani emas. Bu har bir o‘quvchini ismi bilan chaqirish, uning qiziqishini bilish, xatosi uchun hamma oldida kulgiga qoldirmaslik va o‘z va’dasiga amal qilish demakdir. Qoida qo‘yadigan, lekin hurmat qiladigan o‘qituvchining so‘zi bolalar uchun og‘irroq bo‘ladi.

3. Jarayonli usullar: dars davomida

Dars boshlanganda sinfning diqqatini jalb qilishning oddiy yo‘li bor: aniq signal. Bu qo‘ng‘iroqcha, qo‘l ko‘tarish yoki ma’lum bir ibora bo‘lishi mumkin. Muhimi — signal har safar bir xil bo‘lishi va o‘qituvchi uni ovozini balandlatmay qo‘llashi.

Dars davomida quyidagi usullar yaxshi natija beradi:

Yaqinlashish. Shovqin qilayotgan o‘quvchi yoniga indamay borib turish ko‘pincha tanbehdan ko‘ra kuchliroq ta’sir qiladi.

Ko‘z bilan aloqa va imo-ishora. Darsni to‘xtatmasdan, jimgina eslatish imkonini beradi.

Savolni shaxsiy qilish. Chalg‘igan bolaga ismi bilan oddiy, mavzuga oid savol berish uni jarayonga qaytaradi va uyaltirmaydi.

Faoliyatni almashtirish. Sinf charchagan bo‘lsa, qisqa jismoniy mashq yoki juftlikda

muhokamaga o‘tish diqqatni tiklaydi.

Sur’atni saqlash. Dars juda sekin yoki juda tez ketsa, intizom buziladi. Sur’at sinfning real imkoniyatiga mos bo‘lishi kerak.

4. Korreksion usullar: qoidabuzarlikdan keyin

Qoidabuzarlik bo‘lganda o‘qituvchining birinchi vazifasi — o‘zini tuta bilish. Jahl bilan aytilgan gap bir daqiqaga tartib o‘rnatadi, ammo munosabatni uzoq vaqtga buzadi. Tajribali o‘qituvchilar ushbu qoidaga amal qiladi: tanbehni yakka tartibda va xotirjam ovozda berish, hamma oldida uyaltirmaslik.

Samarali javob uchta narsani o‘z ichiga oladi: nima bo‘lganini aniq nomlash (“Sen uchinchi marta navbatsiz gapirding”), buning boshqalarga ta’sirini tushuntirish va oqibatni oldindan kelishilgan tarzda qo‘llash. Jazo o‘quvchining shaxsiga emas, xatti-harakatiga qaratilgani muhim. “Sen yomon bolasan” deyish bilan “bu ish no‘rin edi” deyish orasida katta farq bor.

Tabiiy oqibat usuli ham foydali. Masalan, ruchkasini boshqaga otgan o‘quvchi uni yig‘ib berishi, shovqin bilan boshqalarning ishiga xalaqit bergan guruh esa vazifani tanaffusda yakunlashi mumkin. Bunday oqibat jazo emas, balki harakatning mantiqiy davomi sifatida qabul qilinadi.

Quyidagi jadvalda uch yo‘nalishdagi usullar umumlashtirilgan.

1-jadval. Intizomni shakllantirish usullarining qiyosiy tavsifi

Yo‘nalish	Asosiy usullar	Qachon qo‘llanadi	Ehtimoliy xato
Profilaktik	Qoidalarni birgalikda tuzish, tartib-odatlar, rejalashtirish, ijobiy munosabat	O‘quv yili boshida va har dars oldidan	Qoidalarni o‘quvchilarsiz, tayyor holda berish
Jarayonli	Signal, yaqinlashish, savol berish, faoliyatni almashtirish	Dars davomida	Ovozni ko‘tarib, hamma oldida tanbeh berish
Korreksion	Xotirjam suhbat, tabiiy oqibat, ota-ona bilan hamkorlik	Qoidabuzarlik sodir bo‘lgandan so‘ng	Shaxsiyatni qoralash, har gal bir xil jazo qo‘llash

5. Amaliy vaziyatlar tahlili

Nazariya amaliyotda sinaladi. Quyida maktab sharoitida tez-tez uchraydigan uchta vaziyat va ularning mumkin bo‘lgan yechimlari keltirilgan.

Birinchi vaziyat: dars boshida shovqin. O‘qituvchi sinfga kiradi, o‘quvchilar esa tanaffusdagi gurunglarini davom ettirmoqda. Ko‘pchilik bu yerda ovozini balandlatadi va ko‘p hollarda bu ishlamaydi, chunki bolalar ovozga tez moslashadi. Boshqa yo‘l — dars boshida har kuni takrorlanadigan qisqa odat joriy etish: masalan, doskaga bir daqiqalik “isinish” topshirig‘i yozib qo‘yish. O‘quvchi sinfga kirgach, nima qilishini o‘zi biladi va diqqat avtomatik ravishda darsga o‘tadi.

Ikkinchi vaziyat: bir o‘quvchi doimiy xalaqit beradi. Bunday bola ko‘pincha “yomon” emas, balki yo e’tibor topolmayapti, yo topshiriq unga oson yoki juda qiyin. Avvalo sababni aniqlash kerak: dars tugagach u bilan yakka suhbatlashish, uning qiziqishlarini bilish, unga sinf oldida kichik mas’uliyat (masalan, material tarqatish) topshirish ko‘pincha tanbehdan ko‘ra yaxshi natija beradi. Bola o‘zining foydali ekanini his qilgach, xalaqit berishga ehtiyoj kamayadi.

Uchinchi vaziyat: guruh ishida tartibsizlik. Guruhga bo‘linganda sinf boshqaruvdan chiqib ketayotgandek tuyuladi. Bu odatda rollar aniq belgilanmaganidan kelib chiqadi. Agar har bir guruhda boshqaruvchi, yozuvchi, vaqtni kuzatuvchi va taqdimotchi bo‘lsa va vazifa aniq vaqt bilan berilsa, shovqin ish shovqiniga aylanadi: bolalar gaplashadi, lekin mavzu haqida.

Uch vaziyatning umumiy jihati shundaki, yechim “o‘quvchini jazolash”da emas, tizimni o‘zgartirishda yotadi: odat, aniq rol va o‘quvchining ehtiyojini tushunish.

5.1. Zamonaviy qiyinchiliklar: diqqat va raqamli qurilmalar

Bugungi sinfda alohida masala — smartfonlar. Ularni to‘liq taqiqlash ko‘pincha yashirin foydalanishga olib keladi. Samaraliroq yo‘l — dars boshida qurilmalar uchun aniq qoida kelishish (masalan, “faqat topshiriq uchun va ruxsat bilan”) va darsning o‘zini qiziqarli, faol qilish. Chunki qurilmaga qochish ko‘pincha zerikishning belgisi. Bu yerda ham profilaktik yondashuv: dars qanchalik jonli bo‘lsa, telefon shunchalik kam kerak bo‘ladi.

6. Amaliy tavsiyalar

Yuqoridagilarni umumlashtirib, yosh o‘qituvchilar uchun bir nechta tavsiya berish mumkin.

Birinchidan, o‘quv yilining dastlabki ikki haftasini intizomning poydevoriga ajrating: qoidalarni birga tuzing, tartiblarni mashq qildiring. Ikkinchidan, har bir darsni “tirik” rejalashtiring: vaqt, o‘tishlar va qo‘shimcha topshiriqlarni oldindan belgilang. Uchinchidan, ko‘proq rag‘batlantiring: ijobiy rag‘batlantirish xulq-atvorni shakllantirishda tanbehdan ko‘ra muhimroq rol o‘ynaydi (Marzano va boshq., 2003). To‘rtinchidan, har bir muammoli vaziyatdan keyin o‘zingizga savol bering: “Bu qaysi bosqichda oldini olish mumkin edi?”

Eng muhimi — intizomni “kurash” deb emas, bolalar bilan hamkorlikdagi jarayon deb qabul qilish. O‘zini hurmat qilingan his qilgan o‘quvchi sinf qoidalarini ham ancha jiddiy qabul qiladi.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar intizomi alohida “tarbiyaviy tadbir” emas, balki butun o‘quv jarayonining natijasidir. U yaxshi rejalashtirilgan dars, aniq va birgalikda tuzilgan qoidalar, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hurmatga asoslangan munosabat hamda o‘z vaqtida qo‘llanilgan jarayonli va korreksion choralar bilan mustahkamlanadi. O‘qituvchining asosiy kuchi muammoni “o‘chirish”ga emas, uning oldini olishga sarflanishi kerak. Bu yo‘l ham o‘quvchilar, ham o‘qituvchi uchun kamroq stress va ko‘proq o‘rganish vaqtini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

3. Evertson C. M., Weinstein C. S. (eds.). Handbook of Classroom Management: Research, Practice, and Contemporary Issues. — Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006.

4. Kounin J. S. Discipline and Group Management in Classrooms. — New York: Holt, Rinehart & Winston, 1970.

5. Marzano R. J., Marzano J. S., Pickering D. J. Classroom Management That Works:

Research-Based Strategies for Every Teacher. — Alexandria, VA: ASCD, 2003.

6. Bandura A. Social Learning Theory. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977.

